

Kafedra mudiri:

## p.f.n Erdonov Orif Latipovich

**Telefon:** (8 371) 238-64-71

**E-mail:** [o.erdonov@tuit.uz](mailto:o.erdonov@tuit.uz)

1955 yili jismoniy tarbiyava sport kafedrasida gaosossolingan. Institut talabalari bilan jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etish uchun 1952 yilda Olimpiada o'yinlari qatnashchisi bo'lgan, ikkinchi jaxon urushifaxriysi V.G.Fedotov ishga qabul qilindi. Jismoniy tarbiya va sport kafedrasida dastlab P.I.Donchenko, Z.F.Fedotova, keying yillarda V.Yaskov, P.I.Raxmatov, L.A.Kutyana, S.A.Xudoshin, G.A.Levin, A.S.Korotich, Georgiev Xristoch, G.M.Lisnyak, K.Kolomenskiy, O.Abdalimov, Ye.B.Kovalskaya, T.V.Pokrovskaya, O.Pinenkova, A.Lozenko, V.I.Orlovskiy, O'zbekistonda xizmat kursatgan murabbiy, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent V.I.Izaak, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi B.M.Pokrovskiy, sport ustasi Y.X.Dechkova boshkalar jismoniy tarbiyava sport turlaribo'yicha seksiyalarda talabalar bilan mashg'ulotlar olib bordilar.

1970-1980 yillar kafedra mudiri V.G.Fedotov, katta o'kituvchilar P.I.Donchenkolar sport turlaribo'yicha maxsus qurilmalar yaratib, ularni ilmiy asoslab, pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldilar.

Kafedraga 1981-1991 yillar davomida respublikada katta tennis uyinlarini tashkil etishga asos solganlardan biri sport ustasi A.M. Gafitulin mudirlik qildi. Keyinchalik, unga dotsent unvoni berildi. U umrining oxirigacha kafedrada dotsent lavozimida faolishladi.

1991yilda kafedraga mudirlik lavozimiga tanlov natijalari buyicha dotsent I.A.Koshbaxtiyev saylandi. 1994 yilda pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasi uchun dissertatsiya ximoya qildi va 1995 yilda professor unvonini oldi, 1996 yilda pedagogika va ijtimoiy fanlar akademiyasiga akademik, 2011 yilda xalqaro "ANTIQUÉ WORL" ilmiy akademiyasiga akademik bo'lib saylandi. Professor I.A.Koshbaxtiyev 2000-2002 yillar davomida Bolgariya oily ligasi ishtirokchi «Levski» futbol jamoasining maslaxatchisi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Shu yillar «Levski» jamoasi Bolgariya chempioni va kubogini olishga sazovor bo'ldi. 2012 yildan kafedra professori lavozimida faoliyat olib bormokdalar.

2012 - yilda kafedraga mudirlik lavozimiga tanlov natijalari buyicha dotsent O.L.Erdonov saylandi. I.A.Koshbaxtiyev ilmiy raxbarligida 2008 yilda pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun dissertatsiya ximoya qildi va 2009 yilda kafedraga dotsent lavozimiga saylandi.

Bugungi kunga kelib kafedrada: kafedra mudiri O.L.Erdonov, professor I.A.Koshbaxtiyev, dotsent I.V.Babicheva katta o'kituvchilar: Sh.K.Kojbaxtiyev; sport ustasi Ye.B.Vasileva; assistant, M.V.Moiseeva, Khalmuratov R.N. faoliyat olib bormokdalar.

## Kafedrada o'qitiladigan fanlar

Bakalavriat:

- Jismoniy tarbiya (barcha yo'nalishlarga)

## Kafedra professor o'qituvchilari

- Erdonov Orif Latipovich
- Koshbaxtiyev Ildar Axmedovich
- Kojbaxtiyev Shamil Xamidovich
- Vasilyeva Yelena Borisovna
- Babicheva Irina Vyacheslavovna

- Maysiyeva Mariya Velerevna
- Halmuradov Ravshan Napasovich